

UDK

TAJIRIBADAGI SIGIRLARNING EKSTERYER KO'RSATKICHLARI

Murotova Nilufar Faxriddin qizi

talaba, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Axtamova Munira Tuychiyevna

ilmiy rahbar, q.x.f.f.d.(PhD), assistent Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Dehqonov Bobur Baxodirovich

assistent, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti

Toshmurodova Sabina Hazratqul qizi

talaba, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15868811>

Annotatsiya: maqolada “Imnamak” ozuqaviy qo'shimchasini gunajinlar ratsioniga qo'shib ijobiy natijalar olingan. Tajriba Samarqand viloyati Pstdarg'om tumanida joylashgan “K-Eldor” fermer xo'jaligidagi golshtin zotli g'unajinlarda olib borilgan. Tajriba natijasida qoramollarning tana o'lchamlari hamda tana indekslariga bo'yicha tajriba guruhidagi g'unajinlar nazorat guruhidagi g'unajinlarga nisbatan ustunlik qilganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В статье показано, что добавление в рацион телок пищевой добавки «Имнамак» дало положительные результаты. Эксперимент проводился на коровах голштинской породы в фермерском хозяйстве «К-Элдор», расположенном в Пастдаргамском районе Самаркандской области. Эксперимент показал, что телки опытной группы превзошли телок контрольной группы по промером тела и индексу массы тела.

Annotation. The article shows that adding the food supplement "Imnamak" to the diet of heifers gave positive results. The experiment was conducted on Holstein cows at the K-Eldor farm located in the Pstdargam district of the Samarkand region. The experiment showed that the heifers of the experimental group surpassed the heifers of the control group in body measurements and body mass index.

Kalit so'zlar: golshtin zoti, ozuqaviy qo'shimcha, eksteryer, tana indeksilari.

Kirish. Mamlakatimizda keyingi yillarda aholini chorvachilik mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlari rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dastur”ga muvofiq Respublika aholisini oziq-ovqat mahsulotlar bilan barqaror ta'minlash hamda chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarida ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshirish, sut yetishtirish hajmini 11,5 mln. tonnadan 22 mln. tonnaga, aholi jon boshiga esa 336 kg dan 560 kg gacha oshirish; qoramol go'shti yetishtirish (tirik vaznda) 1980 ming tonnadan 2864 ming tonnaga, aholi jon boshiga 47,5 kg dan 69,4 kg ga yetkazish mo'ljallangan [1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda chorvachilik sohasida olib boriladigan ilmiy-tadqiqotlar, ta'lim va maslahat xizmatlari va ularni ishlab chiqarish bilan integrasiya qilinishining roli dasturda alohida qayd qilingan.

Respublikamizga hozirgi kunda ko'plab xorijiy mamlakatlardan golshtin zotli qoramollar keltirilmoqda. Ushbu zot mamlakatimizning iqlim sharoitiga moslashib, sut mahsuldorligi takomillashtirish bo'yicha yaxshilovchi zot bo'lib, dunyo genofondiga xos bo'lgan zot hisoblanadi.

Qoramollarning mahsuldorligini oshirish, yuqori mahsuldor podalarni yaratish uchun ularni barcha ko'rsatkichlari bo'yicha shu o'rinda eksteryeriga ham baho berish muhim hisoblanadi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda eksteryerni 100 ballik shkala asosida baholanadi. Sutdor qoramolchilikda qoramollarning eksteryer xususiyati sut yo'nalishiga xos bo'lishi ularning mahsuldorligini ham belgilab beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Golshtin zotiga mansub qoramollarning Samarqand sharoitida eksteryer ko'rsatkichlariga “Imnamak” ozuqaviy qo'shimchasining ta'sirini o'rganish.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi “K-Eldor” fermer xo'jaligida o'tkazildi. Golshtin zotli g'unajinlar ratsioniga “Imnamak” ozuqaviy qo'shimchasi qo'shib berilib olingan ma'lumotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari va tahlili. Sut yo'nalishidagi qoramollarni parvarishlashda yaxshi oziqlantirish va saqlash sharoiti yaratib berilishi ularning durkun o'sishiga, ertaroq voyaga yetishiga olib keladi, bu esa ulardan hayoti davomida ko'proq mahsulot olish imkonini beradi.

Tananing rivojlanishi uning murtaklik davridan qarilik yoshigacha bo'lgan davrda kechadigan hujayralar tarkibidagi sifat o'zgarishlarini, organ va to'qimalarning ixtisoslashishi va murakkablashishini o'z ichiga oladigan jarayondir. Qoramollar o'lchamlarining oshishi yoki ortishi ular fiziologik va xo'jalik nuqtai nazaridan yetilishining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

Ko'pgina mualliflarning yozishicha hayvonlarning eksteryeri, tana tuzilishining tipi, tana ayrim qismlarining rivojlanishi kabilar uning o'sish xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar hayvonlar tana o'lchamlarining o'zgarishida ifodalanadi. Qoramollarning tana o'lchamlari ularning yoshi ortishi bilan, oziqlantirish sharoiti, asrash va boshqa omillar ta'sirida o'zgaradi [3,5].

Olib borilgan tadqiqotlarimizda qoramollarning 20-24 oylik yoshlarda tana o'lchamlarining o'zgarishi bo'yicha olingan ma'lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

Dastlab tajriba boshida ajratilgan 20 oylik yoshdagi qoramollarda tana o'lchamlari bo'yicha guruhlararo farq sezilarli darajada kuzatilmagan. Tajriba davomida qoramollar ratsioniga “Imnamak” preparatining kiritilishi natijasida tajriba guruhida nazorat guruhidagi g'unajinlarga nisbatan ularning tana o'lchamlari bo'yicha tegishli farqlar kuzatildi. Jumladan, 24 oylikda tajriba guruhidagi qoramollarning yag'rin balandligi nazorat guruhiga nisbatan 0,9 cm ga, dumg'aza balandligi – 0,6 cm ga; gavdaning qiya uzunligi – 1,7 cm ga; ko'krak aylanasi – 1,1 cm ga, ko'krak chuqurligi – 0,5 cm ga, ko'krak kengligi – 0,5 cm ga, yonbosh do'ngliklari kengligi – 1,7 cm ga, qo'ymich do'ngliklari kengligi – 1,1 cm ga, kaft aylanasi – 0,6 cm ga yuqoriroq ekanligi kuzatildi.

1-jadval

Tajribadagi hayvonlar tana o'lchamlarining yoshiga qarab o'zgarishi, cm ($\bar{X} \pm S\bar{x}$), n= 12

O'lchamlar	Guruhlar	
	Nazorat	Tajriba
20 oylikda		

Yag‘rin balandligi	115,9±0,78	116,7±0,74
Dumg‘aza balandligi	120,4±0,71	121,3±0,67
Gavdaning qiya uzunligi	129,4±0,56	130,9±0,60
Ko‘krak aylanasi	169,0±0,64	170,8±0,57
Ko‘krak chuqurligi	62,8±0,51	63,6±0,48
Ko‘krak kengligi	41,5±0,37	42,4±0,41
Yonbosh do‘ngliklari kengligi	40,4±0,34	41,5±0,32
Qo‘ymich do‘ngliklari kengligi	19,6±0,27	20,1±0,36
Kaft aylanasi	18,1±0,31	18,6±0,28
24 oylikda		
Yag‘rin balandligi	133,0±0,52	134,4±0,51*
Dumg‘aza balandligi	138,1±0,64	138,7±0,62*
Gavdaning qiya uzunligi	158,3±0,93	161,0±0,86
Ko‘krak aylanasi	186,5±0,68	189,1±0,71*
Ko‘krak chuqurligi	74,2±0,47	74,7±0,48
Ko‘krak kengligi	47,0±0,54	47,9±0,42
Yonbosh do‘ngliklari kengligi	54,3±0,48	55,0±0,38
Qo‘ymich do‘ngliklari kengligi	26,2±0,36	27,3±0,28
Kaft aylanasi	19,5±0,21	20,1±0,22

*P<0,05

2- jadval

Tajribadagi qoramollarning tana tuzilishi indekslari, % ($\bar{X} \pm S\bar{x}$)

Indekslar	Guruhlar	
	Nazorat	Tajriba
20 oylikda		
Uzunoyoqlilik	45,8±0,30	45,5±0,29
Cho‘ziqlik	111,6±0,18	112,2±0,17
Tos- ko‘krak	102,7±0,22	102,2±0,23
Ko‘krakdorlik	66,1±0,80	66,7±0,79
Ixchamlik	130,6±0,15	130,5±0,16
Bo‘ydorlik	103,8±0,16	103,9±0,14
Suyakdorlik	15,6±0,19	15,9±0,18
24 oylikda		
Uzunoyoqlilik	44,21±0,24	44,4±0,23
Cho‘ziqlik	119,0±0,23	119,8±0,25
Tos- ko‘krak	86,5±0,32	87,0±0,33
Ko‘krakdorlik	63,3±0,75	64,0±0,74
Ixchamlik	117,8±0,16	117,4±0,17
Bo‘ydorlik	103,8±0,07	103,2±0,09
Suyakdorlik	14,7 ±0,19	14,95±0,18

Hayvonlarning eksteryer ko'rsatkichlari ularga baho berishda tananing umumiy rivojlanganligi to'g'risida to'liq xulosa qilishga imkon bermasligini inobatga olib, biz qoramollar yoshining oshib borishi bilan ularning tana tuzilishi indekslarini aniqladik (2-jadval). Tana indekslari bo'yicha guruhlararo sezilarli farq aniqlanmadi. Har ikkala guruhdagi 24 oylik yoshidagi sigirlar sut tipiga xos bo'lgan tana tuzilishi indekslarini namoyon qilib, baland bo'yiligi, tanasining cho'ziqligi, boshining hamda bo'ynining nisbatan uzun, quruq, yengil bo'lishi bilan tavsiflanadilar.

Xulosa. Qoramollarni oziqlantirishda “Imnamak” preparatidan foydalanish ularda hazm jarayonlarining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, fermer xo'jaligida kelgusida g'unajinlarni o'stirishda ularning maqsadga muvofiq tana tuzilishiga ega, eksteryer-konstitutsiya xususiyatlari bo'yicha sut tipiga xos bo'lgan sigirlar yetishtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.02.2022 yildagi PQ-120-sonli qarori
2. Кудрин М.Р. Развитие ремонтных телок чёрно-пестрой породы по периодам роста. // Усехи времного естествознания. 2008. № 12, с. 30-32.
3. Ахтамова, М. Т., Маматов, Х. А., & Гаппаров, Ш. Т. (2022). ГОЛШТИН ЗОТЛИ ҚОРАМОЛЛАРДА ОЗУҚАЛАРНИ ТИРИК ВАЗН ЎСИШИ ВА СУТ БИЛАН ҚОПЛАШ КЎРСАТКИЧЛАРИ. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 513-516.
4. Ахтамова, М. (2023). ГОЛШТИН ЗОТЛИ ТАНАЛАРНИНГ ПОДАНИ ТАКРОР ТЎЛДИРИШ КЎРСАТКИЧЛАРИ.
5. Tuychievna, A. M., Kuzibaevich, A. S., Ergashevna, K. S., Tajievich, G. S., & Elmuratovna, S. F. The Use of Feed Additives in the Diet of Cattle. *European Journal of Agricultural and Rural Education*, 2(6), 37-39.